

**O`ZBEKISTON DAVLAT SAN`AT
VA**

MADANIYAT INSTITUTI

«Xalq ijodyoti » fakulteti “XAvaRAR”
bo’limi 1-kurs talabasi

Mustaqil ish

Nota yozuvi va uning kelib
chiqish tarixi

Bajardi: Jalilov I.

Reja:

- Nota yozuvining kelib chiqish tarixi
- Tovush balandliklarini yozish
- Tovush cho`zimini yozish
- Tovush cho`zimini uzaytirish
- Pauzalar
- Akkolada




Tayanch soʻz va iboralar

- **Nota yoʻli** – yondosh chizilgan 5 ta parallel chiziq.
- **Qoʻshimcha chiziqlar** – nisbatan baland va past tovushlarni yozish uchun, nota yoʻlining ustida va ostida qoʻyiladigan qisqa chiziqlar.
- **Kalitlar** – nota yoʻlida yozilgan notalarning balandligini aniqlash uchun ishlatiladigan maxsus belgilar.
- **Sol kaliti** – nota yoʻlining 2-chizigʻida birinchi oktava sol tovushini joylashganligini koʻrsatuvchi belgi.
- **Fa kaliti** – nota yoʻlining 4-chizigʻida kichik oktava fa tovushini joylashganligini koʻrsatuvchi belgi.
- **Do kaliti** – nota yoʻlining qaysi chizigʻida joylashganligidan qatʼiy nazar, birinchi oktava do tovushini koʻrsatuvchi belgi.
- **Nota** – tovush choʻzimi va balandligini qayd etuvchi, chap tomonga sal egilgan oval koʻrinishiga ega belgi.
- **Shtil** – nota boshchalariga tushirib yoziladigan tik chiziqchalar.
- **Butun nota** - eng katta choʻzimli tovush.
- **Tovush choʻzimlari** - butun notani ikki, toʻrt, sakkiz va h. k. qismga boʻlish yoʻli bilan olingan boʻlaklari.
- **Brevis** – 2 ta butun nota choʻzimiga teng boʻlgan tovush choʻzimi.
- **Nuqta** – tovush choʻzimini yarim baravar uzaytiruvchi belgi.
- **Qoʻsh nuqta** – tovush choʻzimini yarim va yana chorak baravar uzaytiruvchi belgi.
- **Liga** – bir xil balandlikdagi tovush choʻzimlarini birlashtiruvchi belgi.
- **Fermata** – tovush choʻzimini istagancha choʻzib turish mumkinligini koʻratuvchi belgi.
- **Pauza** – tovush eshitilishining vaqtincha toʻxtalishi.
- **General pauza** - barcha ovozlarda bir vaqtda roʻy beradigan davomli pauza.
- **Akkolada** - nota yoʻllarini toʻgʻri yoki shakldor qavs bilan birlashtiruvchi belgi.
- **Partitura** – jamoaning har bir ishtirokchisi tomonidan ijro qilinadigan musiqa.

- Musiqaviy tovushlarni yozib olishga bo`lgan dastlabki urinishlar uzoq davrlarga borib taqaladi.
- Antik davrga mansub (Yunoniston) bir qancha musiqiy asar yodgorliklariga qaraganda ularda tovush balandliklari harflar bilan belgilangan, ammo harflar tovush cho`zimlarini ko`rsata olmaganlar.
- Eng dastlabki qadimiy yunon harfiy notatsiyasi eramizdan oldingi III- asrdan yangi eraning X- asrigacha mavjud bo`lgan.
- Erta o`rta asr davrida esa G`arbiy Evropada qadimiy yunon harfiy notatsiyasi bilan birga lotincha harfiy notatsiya ham qo`llanilgan. Ikki oktava hajmidagi diatonik tovushqator **A, B, C, D, E, F, G, a, b, c, d, e, f, g**, harflari bilan belgilangan, bunda **a** harfi hozirgi **lya** tovushinig bo`g`in nomiga, **c** harfi esa **do** tovushining bo`g`in nomiga muvofiq kelgan.




Nota yo`li



- Nota yo`li deb, yondosh chizilgan 5 ta parallel chiziqqa aytiladi. Chiziqlarga va chiziqlar oralariga, shuningdek, 5-chiziqning ustiga va 1-chiziqning ostiga notalar deb ataladigan, tovush cho`zimiga ko`ra turlicha ko`rinishga ega bo`lgan va tovushning aniq balandligini ko`rsatuvchi maxsus belgilar yoziladi. Notalar quyidagicha ko`rinishga egalar: - □, □, □. □. □ va h.k.

- Nota yo`lida yozilgan notalar, tovushlar qaysi yo`nalishda harakat qilayotganligini va bir-biridan qanday masofada uzoqlashayotganligini aniq ko`rsatsa-da, tovushlarning aniq balandligini ko`rsatolmaydi:



Kalitlar



- Kalit deb, nota yo`lining har bir chizig`ida yozilgan notalarga ma`lum bir balandlikni berkitib qo`yuvchi belgiga aytiladi.

Oktavaga ko`chirish belgisi











- Bas va skripka kalitidan foydalanib, musiqiy tovushqatorning barcha tovushlarini yozib chiqish mumkin. Ammo, yuqori va pastki registrnlarning chekka tovushlari yozuvda ancha ko`p qo`shimcha chiziqlar ishlatishni talab etadi, masalan:

Tovush cho`zimini yozish

- Bu jadvalda qadimda qo`llanilgan tovush cho`zimlari ko`rsatilib, ulardan faqat 2 ta butun nota cho`zimiga teng bo`lgan **«brevis»** hozirgi davrda ayrim musiqa asarlarida uchrab turadi.

Cho`zimning nomi	lotincha yozilishi	ma'nosi	belgisi	hozirgi qaysi cho`zimga muvofiq kelishi
maksima	maxima	eng uzun		-
longa	longa	uzun		-
brevis	brevis	qisqa		2 ta butun notaga
semibrevis	semibrevis	brevisning yarmi		butun notaga
minima	minima	eng qisqa		yarim notaga
semiminima	semiminima	minimaning yarmi		chorak notaga
fuza	fuza	bo`lingan		nimchorak notaga
semifuza	semifuza	fuzaning yarmi		o`n oltitalik notaga

- Nuqtali notadan tashqari qo`sh nuqtali notalar ham qo`llaniladi. Birinchi nuqta nota cho`zimini yarim baravar oshiradi, ikkinchi nuqta esa, uni yana chorak baravar uzaytiradi. Boshqacha aytganda qo`sh nuqta nota cho`zimini $\frac{3}{4}$ miqdoriga oshiradi, masalan:
- $n.. = n + n + \theta$ ($n.. = 7/8$); $\theta.. = \theta + \varepsilon + \varepsilon$ ($\theta.. = 7/16$) h.k.

Cho`zimlarning yozilish o`rinlari	butun nota	yarim nota	chorak nota	nimcho-rak nota	o`n oltitalik nota
chiziqlarga					
chiziqlar oralariga					
5-chiziqning ustiga, 1-chiziqning ostiga					
yuqorigi va pastki 1- yordamchi chiziqqa					
yuqorigi 1- yordamchi chiziq ustiga va pastki 1- yordamchi chiziq ostiga					
yuqorigi va pastki 2- yordamchi chiziqqa					
yuqorigi 2- yordamchi chiziq ustiga va pastki 2- yordamchi chiziq ostiga					


Pauzalar

- Pauza – yunoncha pauses – tugallash, to`xtash demakdir.
- Pauza – bir, bir necha yoki barcha ovozlarda tovush eshitilishining vaqtincha to`xtalishidir. Pauzalar musiqaning tarkibiy qismlaridan bo`lib, musiqiy tuzimlarni chegaralash va ifodaviy kuchni oshirish uchun zarur hisoblanadi.
- Pauzalar nota tizimida maxsus belgilar bilan yoziladi. Pauzalar cho`zimi notalar cho`zimiga muvofiq keladi. Butun, yarim, chorak, nimchorak va h.k. kabi barcha cho`zimlar pauzalar bilan ham ifodalanishi mumkin.

Ω	notaga	-	muvofiq pauza	/
ω	notaga	-	muvofiq pauza	•
n	notaga	-	muvofiq pauza	τ
θ	notaga	-	muvofiq pauza	ϵ
ε	notaga	-	muvofiq pauza	$^{\text{TM}}$
$\beth$	notaga	-	muvofiq pauza	$\odot$

Akkolada

- Musiqa asarlari ikki yoki undan ortiq nota yo`liga yoziladigan hollarda (fortepiano, organ, orkestr, qo`shiq va uning jo`r qismi va h.k. lar uchun) nota yo`llari a k k o l a d a deb ataladigan to`g`ri yoki shakldor qavs bilan birlashtiriladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

- 1. V. A. Vaxromeev, Musiqaning elementar nazariyasi, Toshkent – “O`qituvchi” 1980 yil.
- 3. I. Akbarov., Musiqa lug`ati, Toshkent – 1987 yil.
- 4. Q. Rahimov., Musiqaning elementar nazariyasi, Ma'lumotnoma. Toshkent – 2006 yil.
- www.ziyonet.uz
- www.fkir.uz